


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 5 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-5>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Yakubova Matluba Tajiboevna SHEVAGA XOS LEKSIK BIRLIKLARNING ERKIN SAMANDAR SHE'RIYATIDAGI BADIY AHAMIYATI.....	8
2. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI MA'NODOSH SO'ZLAR TAHLILI.....	17
3. Yangibayeva Nodira, Rahimova Mohigul HAYOT-MAMOT MOTIVINING IKKI XIL BADIY TALQINI.....	25
4. Niyazmetova Shahlo Adamboyevna ULUG'BEK HAMDAM SHE'RLARIDA PARALLELIZMLARNING QO'LLANILISHI VA O'ZIGA XOSLIGI.....	31
5. Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna SHOLICHILIK LEKSIKASI VA GURUCHLI TAOM NOMLARINING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.....	35
6. Jumanyazova Muxabbat Xusinovna XORAZM XALQ QO'SHIQLARI LEKSIKASIDAGI AYRIM SO'ZLARNING ETIMOLOGIYASI XUSUSIDA.....	40
7. Fayzullaeva Rukhshona Lutfulloevna, Melikova Martaba Numonovna INFLUENCE OF GLOBALIZATION ON THE COMMUNICATION PROCESS.....	44
8. Raufjon Maxmudov, Anaxon Vapayeva O'ZBEK VA RUS TILLARI LEKSIKASIDA ENG YANGI QATLAM.....	51
9. Ихтиёр Бабаназаров XII ACP XORAZM ILMIIY-ADABIY MUHOJITI DA MAHMUD ZAMAXSHARIYNING TUTGAN UYRI.....	56
10. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI KO'P MA'NOLI LEKSIK BIRLIKLARNING ASARDAGI O'RNI.....	62
11. Abdullayeva Poshshajon Usmon qizi FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING O'RGANILISHI.....	69
12. Matyakubova Surayyo Abdullayevna OGAHIYNING TARIXIY ASARLARIDA QO'SHMA FE'LLAR SINONIMIYASI.....	73
13. Xo'jamurodova Iroda Anvar qizi SEMIOTIKA: NAZARIY ASOSLAR VA TADQIQOTLAR.....	78

IQTISODIYOT

1. Karimova Madina

XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI VA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI BAHOLASH.....83

2. Baxtiyarova Sabohat Baxtiyarovna

STRATEGIK MENEJMENTNING O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI TATBIQI.....91

PEDAGOGIKA

1. Davletov Erkaboy Yusbovich

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA TAYANCH HAYOTIIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI.....95

2. Usanova Zulfiya Bozorovna

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING GENEZISI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI...98

3. Odinaeva Gulshoda Shavkatovna

TARBIYA DARSLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY DAXLDORLIK TUYG'ULARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI.....102

PSIXOLOGIYA

1. Raximov Bobur, Radjapova Dilnura

SHAXS IJTIMOIIYLASHUVINING PSIXOLOGIK ASOSLARI.....107

TARIX

1. Babajanova Nilufar Alisherovna

QUYI AMUDARYO TARIXIIY-GEOGRAFIK REGIONIDA URBANISTIK JARAYONLAR. AHOLINING JOYLASHISHI VA TARIXIIY TARAQQIIYOT SAHIFASI.....111

2. Bekchanov Doniyor

XORAZM JADIDLARI QARASHLARIDA DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTINI MODERNIZATSIYALASH MASALALARI.....115

3. Tajiyeva Umida Rajabboevna

O'ZBEK XALQII MADANIYATIDA TABIIATGA MUNOSABATNING BA'ZI MASALALARI.....119

4. Tilovboyeva Mardona Aybekovna

O'RTA OSIYO MINTAQASI TABIIY-GEOGRAFIK HOLATI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR.....123

5. Исмаилов Улугбек Сапарбой огли

ПРОБЛЕМА ХИЩНИКОВ В ЭКОЛОГИИ ДРЕВНЕГО ПЕРИОДА ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА.....127

6. Rajabova Zuhra Sa'dullayevna, Raximova Intizor Rustamovna

XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHIDA TURKISTONDA TA'LIM TIZIMI TRANSFORMATSIYASINING BA'ZI MASALALARI.....132

7. Marimov Muzaffar Erkinovich XX ASRNING 20-30-YILLARI XORAZM OKRUGIDA SOG‘LIKNI SAQLASH SOHASI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR.....	137
8. Bekchanov Doniyor AVAZ O‘TAR QARASHLARIDA JADIDCHILIK G‘OYALARI.....	141
9. Sultanov Samandar Mahmud o‘g‘li XORAZM VOHASI VA G‘ARBIY SO‘G‘D HUDUDLARINING GEOGRAFIK SHAROITI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARI.....	145
10. Abdullayev Abdurasul Abdulpattoevich QUR‘ONI KARIM OYATLARINI TAVIL QILISHDA ISHORIY TAFSIRLARNI O‘RNI.....	149
11. Misrbekova Makhliyo THE REPRESENTATION OF USTRUSHANA’S HISTORY IN NUMISMATIC SOURCES...	155
12. Bekimbetov Bahodir Mirzabaevich YANGI O‘ZBEKISTONDA OROL FOJIASINI HAL ETISHGA YONDASHUVNING TUBDAN O‘ZGARISHI VA UNING NATIJALARI.....	161
13. Xayitmuratova Zaynura G‘aybullayevna QADIMGI MARKAZIIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O‘LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI.....	167

Bekchanov Doniyor –
Ma'mun Universiteti "Tarix"
kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD

XORAZM JADIDLARI QARASHLARIDA DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTINI MODERNIZATSIYALASH MASALALARI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15670147>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xorazm jadidlarining davlat va jamiyat hayotini modernizatsiya qilish borasida say-harakatlari, ularning bu yo'lda o'zlarining g'oyalarini aholi orasida keng tarqatish maqsadida adabiyot, san'atni va matbuotni rivojlantirish masalalariga e'tibor berib, uni amalga oshirishga harakat qilganliklari ilmiy adabiyotlar orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: modernizatsiya, V.Sapf, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, Polvonniyoz Hoji Yusupov, jadid maktabi, "Inqilob quyoshi" gazetasi, milliy taraqqiyot, matbuot.

Бекчанов Дониёр –

Старший преподаватель кафедры истории
Мамунского университета, PhD

ВОПРОСЫ МОДЕРНИЗАЦИИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ И ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ ВО ВЗГЛЯДАХ ХОРЕЗМСКИХ ДЖАДИДОВ

АННОТАЦИЯ

В этой статье освещаются усилия хорезмских джадидов по модернизации государственной и общественной жизни, их попытки осуществить этот путь, уделяя особое внимание вопросам развития литературы, искусства и печати с целью широкого распространения своих идей среди населения.

Ключевые слова: модернизация, В.Сапф, стратегия развития нового Узбекистана, Полвоннияз Хаджи Юсупов, джадидская школа, газета "Солнце революции", национальное развитие, пресса.

Bekchanov Doniyor –

Senior Lecturer at the Department of History,
Mamun University, PhD

ISSUES OF MODERNIZING STATE AND SOCIETY IN THE VIEWS OF KHOREZM JADIDS

ANNOTATION

This article highlights the efforts of the Khorezm jadids to modernize state and public life, and their attempts to implement this path, paying special attention to the development of literature, art, and the press in order to widely disseminate their ideas among the population.

Keywords: modernization, V.Sapf, development strategy of new Uzbekistan, Polvonniyaz Haji Yusupov, Jadid school, newspaper “Sun of Revolution”, national development, the press.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Insoniyat hayotining davlat va jamiyat qurilishiga doir asriy tajribalari har doim ijtimoiy munosabatlarni yangicha yondashuvlar asosida tartibga solish borasidagi ilgʻor gʻoya va yondashuvlarning qaror toptirilishiga olib kelgan. Mazkur yondashuvlarning mohiyati soʻnggi yillarda umumiy tarzda “modernizatsiyalash” tushunchasi yordamida ifodalanib kelinmoqda. Xoʻsh, “modernizatsiya” tushunchasi lugʻaviy jihatdan qanday maʼnoni anglatadi? Ushbu tushuncha negizida qanday holat tavsiflanadi?

Modernizatsiya (ingl. “modern”—zamonaviy, ilgʻor, yangilangan)— obyektning yangi talablar va meʼyorlar, texnik koʻrsatkichlariga mos ravishda yangilanishi sanaladi. Odatda modernizatsiya jarayonida mashinalar, dastgohlar, ishlab chiqarish qurollari hamda texnologik jarayonlar yangilanadi [2]. Biroq, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyalarning rivoji tufayli jamiyat ham rivojlanishning muayyan bosqichidan yanada takomillashgan, oldingisiga nisbatan taraqqiy qilgan bosqichga oʻtadi.

METODLAR VA OʻRGANILISH DARAJASI

Mazkur tadqiqot tarixiy-falsafiy, taqqosloviiy va kontent-tahlil metodlari asosida olib borildi. Birinchidan, modernizatsiya tushunchasining lugʻaviy va nazariy asoslari nemis olimi V. Sapfning klassik yondashuvlari asosida tahlil qilindi. Ikkinchidan, XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Xorazm jadidlarining taʼlim tizimidagi, ijtimoiy-siyosiy va matbuot faoliyatidagi yondashuvlari oʻrganildi. Uchinchidan, Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasidagi ilgʻor tamoyillar bilan tarixiy jarayonlar oʻrtasida konseptual bogʻliqliklar aniqlab berildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Modernizatsiyani tarixiy-falsafiy talqinda ifoda etgadigan boʻlsak, bunda miqdor oʻzgarishlarining tub sifat oʻzgarishlariga aylanishi nazarda tutiladi. Jumladan, oʻrta asrlarda agrar xarakter kasb etgan jamiyat ilm-fan, texnika, sanoat va ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan industrial jamiyatga aylanishi bunga misoldir. Nemis olimi V.Sapf modernizatsiyani uch jihatda koʻrib chiqadi: 1) sanoat inqilobi boshlangan dunyoviy jarayon sifatida, bu jarayonda modernizatsiya qilingan jamiyatlarning kichik guruhi rivojlanishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi; 2) koʻp qirrali jarayon sifatida, bu jarayonda taraqqiyotda orqada qolganlar oldinga oʻtganlarga yetib boradi; 3) modernizatsiya qilingan jamiyatlarning innovatsiyalar va islohotlar yoʻlidagi yangi chaqiriqlarga munosabati sifatida [3]. Shu oʻrinda, Xorazm jadidlari konsepsiyalarida koʻproq koʻzga tashlangan ijtimoiy modernizatsiya toʻgʻrisida ham toʻxtalsak. Ijtimoiy modernizatsiya jamiyatning ijtimoiy tizimdan ochiq fuqarolik jamiyatiga aylanishini anglatadi. Ushbu turdagi modernizatsiya negizida jamiyatning ijtimoiy qatlamlarida umumiy yoki xususiy xarakterdagi yangilanishlar sodir boʻladi. Shu jumladan, taʼlim sohasidagi yangilanishlar ham. Taʼlim tizimining modernizatsiyasi – jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, uning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli taʼlim olishga boʻlgan talabini qondirish, taʼlim tizimini barqaror rivojlanishini taʼminlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishini bildiradi. Mazkur modernizatsiya shaxsni oʻqitish va tarbiyalashga oid eng yaxshi anʼanalarni saqlab qolgan va boyitgan holda majmuaviy xarakter kasb etib, taʼlim tizimining barcha sohalarini toʻla qamrab oladi va jamiyatda qaror topgan malakali mutaxassislarni tayyorlash borasidagi ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi. Xorazm jadidlarining dastlabki faoliyat bosqichida taʼlim tizimiga katta eʼtibor qaratilishining sabablari ham aynan shunda. Chunki, taʼlim tizimini modernizatsiyalash orqali quyidagi muhim ijtimoiy vazifalar hal qilinadi:

- har bir shaxsning toʻlaqonli taʼlim olishida teng huquqliligi va taʼlim olishning ochiqligi taʼminlanadi;

- uzluksiz taʼlim tizimida yangi sifat koʻrsatkichlariga erishiladi;

- davlat va jamiyatning qoʻllab-quvvatlashi negizida taʼlim tizimi xodimlarining ijtimoiy maqomi va kasbiy kompetentligini rivojlantiriladi;

- ta'lim tizimining davlat va jamoatchilik boshqaruviga asoslanganlik tamoyiliga muvofiq ta'lim jarayoni ishtirokchilari – talabalar, pedagoglar, ota-onalar va ta'lim muassasalarining roli oshiriladi [5]

XIX asr oxiri XX asr boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz holatiga tushib qolgan mustamlaka tizimi tufayli rivojlanish past darajada bo'lgan o'lkada Xorazm ziyolilari podsho Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o'z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo'l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralarini ko'rdilar.

Xorazm jadidlari o'lkadagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma'rifatli qilish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o'tkazish, pirovardida milliy hurriyat g'oyalarini hayotga tadbiq etish maqsadini o'z oldiga qo'ygan edi. Shuningdek, ilg'or fikrlovchi, oliy ma'lumotli va ziyoli yoshlar ham Xiva xonligida jadidchilik harakatining shakllanishiga o'z hissasini qo'shgan bo'lib, ular keyinchalik Polvonniyoz Hoji Yusupov boshchiligida “Yosh xivaliklar” partiyasining yaratilishida ishtirok etdi. Bu harakatda qozikalon Boboovun Salimov muhim o'rin tutardi. “Yosh xivaliklar” partiyasi sekin-asta Xiva xonligining asosiy siyosiy kuchiga aylandi, partiya a'zolari mustaqillik va taraqqiyot tarafdorlari edilar.

Xiva xonligida jadid matbuoti yo'qligiga qaramay, mahalliy ziyolilar Usmonli saltanati, Eron va Rossiyada, shuningdek, Toshkent, Samarqand va Buxoroda chop etilayotgan jadid gazeta va jurnallari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Yangicha o'qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta'lim berish dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko'ra maktablarda o'qitish tizimi ikki bosqichdan iborat bo'lgan. Birinchi bosqich ibtidoiy qism deb atalib, uning tahsil muddati 4 yil bo'lgan. Birinchi bosqichni tugatgan shogird eski maktabda 10 yil o'qigandan ko'ra yaxshiroq savod chiqargan. Ikkinchi bosqichni muvaffaqiyatli tugatgan shogird arabcha, forsa, turkiy tilda bimalol so'zlashib, ruschada erkin gaplasha olar edilar.

Xorazm jadidlarining matbuotchilik faoliyatiga keladigan bo'lsak, ular tomonidan Turkiston yoki Buxoro jadidlaridan farqli o'laroq, gazeta va jurnallar nashr etilmagan. Biroq, chetdan kirib kelgan matbuot Xorazm jadidlarining g'oyaviy shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Xiva xonligiga Rossiyaning Qrim, Kavkaz, Orenburg, Qozon, Toshkent va Samarqand shaharlaridan, Turkiya va Erondan o'zbek, rus, tatar, turk va fors tillarida nashr qilingan gazeta, jurnal va kitoblar keltirilib tarqatilgan. Jumladan, “Taraqqiy”, “Xurriyat”, “Najot” (Toshkent), “Vaqt” (Orenburg), “Tarjimon”, “Ma'lumot” (Qrim), “Туркестанский курьер”, “Туркестанская туземная газета” (Toshkent), “Iqtisod va taraqqiyot”, “Ixdam” (Turkiya), “Xabl ul-Matin” (Hindiston) va boshqa gazetalarda Yevropa, Rossiya va Sharq davlatlarida yuz berayotgan siyosiy voqealar, milliy-ozodlik kurashlari hamda ilg'or millat ravnaqi, milliy birdamlik, mustaqillik, ozodlik va xalqni ma'rifatli qilish kabi jadidchilik g'oyalariga oid materiallar e'lon qilinardi [1].

Xorazmdagi birinchi mahalliy gazeta “Inqilob quyoshi” gazetasi bo'lib, muvaqqat inqilobiy hukumat tuzilganidan keyin 1920-yil 8-martdan chop etila boshlangan. “Inqilob quyoshi” gazetasi Quyi Amudaryo havzasi xalqlari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy hayotida sodir bo'layotgan voqealarni o'z sahifalarida yoritgan. Muxbirlar K.Boltayev, Q.Beregin, O.Safayeva, U.Qurboniy, M.Ismoil, E.Devonov, X.Eshmuratov singari partiya xodimlari va qishloq xo'jaligi muxbirlari Faqiriy, Xorazmiy, Mutrib, Partav, Chokar, Mug'anniy, Soib Nazariy kabi yozuvchi, shoirlar gazeta faoliyatida ishtirok etishgan. 1925-yilga kelib, “Inqilob quyoshi” gazetasi bir oyda 25 marta chiqa boshladi, oyiga 8600 nusxaga ko'paytirildi. “Inqilob quyoshi” gazetasi 1939-yil avgust oyidan yangi nom bilan “Xorazm haqiqati” deb atala boshlangan [4].

Rossiya fevral demokratik inqilobi arafasida Xorazm jadidchiligi yetuk siyosiy harakatga aylandi. Agar birinchi jahon urushidan keyin jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashgan bo'lsalar, fevral inqilobidan so'ng Xorazm jadidlarining “taraqqiyparvarlar” oqimini tashkil qilgan radikal qismi ancha keng qamrovli, bir qator siyosiy talablarni ilgari surgan. Ular qatoriga mahalliy aholi huquqlarini kengaytirish, o'lkani boshqarish yuzasidan asosli islohotlar o'tkazish, asosiy demokratik erkinliklarni ta'minlash, avvalo, milliy matbuot erkinligini ta'minlash, mutlaq monarxiyani konstitutsion tuzum bilan almashtirish kabilar kiradi.

Xorazm jadidlari zamonaviy yangiliklarga qarshi bo'lgan mutaassib kuchlarning qarshiligiga qaramasdan, san'at va uning har qanday turi insonni ma'naviy kamolotiga xizmat

qiluvchi, dunyoqarashini yuksaltiruvchi ijtimoiy ong shakli ekanini yaxshi tushunganlar. Bu narsa, ya'ni san'atning ijtimoiy ahamiyati Yangi O'zbekistonni rivojlantirishda ham muhimligi anglab yetildi. Jumladan, O'zbekistonni rivojlantirishning Taraqqiyot strategiyasida muhim vazifa sifatida madaniyat va san'at sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va obyektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash belgilandi.

- Madaniyat va san'at sohasi vakillari, ijodkorlar, shuningdek, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchi va xodimlarni moddiy qo'llab-quvvatlash hamda ularning yashash sharoitlarini yaxshilash.

-Teatr san'atini rivojlantirish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

- Hududlarda yangi madaniyat obyektlarini barpo etish va ularning samarali faoliyat olib borishini ta'minlash.

- Milliy madaniyatni xalqaro darajada ommalashtirishga qaratilgan tadbirlarni hududlarda o'tkazishni joriy etish.

- O'zbek xalqi madaniyati va san'atini rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan atoqli ijodkor ziyolilar yubileylarini munosib nishonlash, hayoti va faoliyatini keng targ'ib qilish, xotirasini abadiylashtirish.

- Respublika hududida joylashgan madaniy meros obyektlarini saqlash, restavratsiya va konservatsiya qilish bilan bog'liq kompleks tadbirlarni amalga oshirish [5].

XULOSA

Jadidlar nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni, shuningdek, barcha taraqqiyparvar ziyolilarni o'z ortidan ergashtira oldi. Ularning faoliyati va dasturi kelajak uchun namuna bo'ldi. Jadidlar tomonidan jamiyatda pishib yetilgan ijtimoiy vazifalarni tadrijiy-islohotchilik tamoyillari asosida hal etish ishlab chiqilganligi, ularning formatsion-institutsional o'zgartirishlarni, mustamlaka tuzumni tubdan yo'qotishning maksimal darajada samarali yo'llarini tanlay bilganliklari, shubhasiz, ularning tarixiy xizmatlaridir.

Iqtiboslar/References/Сноски

1. Полвонниёз Хожи Юсупов. Ёш Хиваликлар тарихи (хотиралар). Маъсул муҳаррир М.Матниёзов. –Урганч.: Хоразм нашриёти, 1999. 487 .52.
2. Побережников И.В. Модернизация: теоретико-методологические подходы //Экономическая история. Обзор / Под ред. Л.И.Бородкина. Вып. 8. М., 2002. С. 146-168.
- 3.Цапф В. Теория модернизации и различие путей общественного развития // Социс. - 1998. - №8.
- 4.Назаров С.Б. Хоразмда маҳаллий матбуотнинг вужудга келиши тарихи// “Евразийский Научный Журнал №10 2018” (октябрь, 2018)
- 5.2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son. <https://lex.uz/docs/5841063>.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000